

Qiyosiy dinshunoslikning nazariy-metadologik masalalari

Ergashev Oybek

TDTU dinshunoslik

fani o'qituvchisi

Xabibullayev Shaxzod

TDTU falsafa

fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolaning maqsadi - dirlarni qiyosiy o'rghanishning tadqiqot asoslarini ishlab chiqish, metodologik muommolarning asl mazmuni va hozirgi davrdagi ijtimoiy mohiyatini ochib berish, mazkur omilning o'ziga xos xususiyatlari, asosiy tamoyillari va uning ahamiyatini ilmiy jihatdan tadqiq etishdan iborat.

Tayanch so'zlar: yahudiylik, tavrot, dirlarni qiyosiy o'rghanishdagi yondashuvlar, islom, qiyosiy tadqiqot asoslari, xristianlik.

Ma'lumki, XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida qiyosiy dinshunoslik mustaqil fan sifatida yuzaga kelgach, bora bora alohida dinshunoslik maktablari vujudga keldi. Har bir maktab vakillari o'ziga xos yo'nalishda tadqiqot olib bordilar. Tadqiqotchilar, dirlarni qiyosiy o'rghanish ma'lumotlarni to'plash va jamlash bilan amalga oshmaydi, degan fikrni bildiradilar. Jumladan, dinshunos G.Vann der Leuv (1890-1950) bu borada: "ma'lumotlarni biror bir gepotezani isbotlash yoki uni rad qilish uchun to'plash lozim; lekin ularni ma'lumot uchungina yig'mang, uning o'rniga pochta markasini jamlaganingiz afzal!"¹ deydi. Qiyosiy dinshunoslik fanining maqsadi – dinlardagi mavjud o'xshash va farqli jihatlarni ko'rsatib berishdan iborat bo'lib, bularni yoritishda ma'lum prinsip va tamoyillarga asoslaniladi. Umuman olganda, izlanishlar natijasida, tadqiqotchilar bilishi va shu asosda o'z tadqiqotlarini

¹ Leeuw G. van der Einführung in die Phanomenologie der Religion. – Munchen: Verlag von Ernst Reinhardt, 1925.

olib borishi kerak bo‘lgan ma'lum bir asoslar ishlab chiqilgan. Quyida ular haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Dinlarni qiyosiy o‘rganish ikki xil yondashuv asosida olib boriladi:

1. Mavzular asosida. Bunda olib borilayotgan tadqiqot dinlardagi biror bir mavzuga tegishli bo‘ladi. Masalan, tadqiqot obyekti qilib “dinlarda Xudo” mavzusi olinsa, u holda iloh to‘g‘risidagi turli hil qarashlarni o‘rganish, ularni o‘zaro qiyoslash, o‘xhash va farqli jihatlarni ko‘rsatib berish kerak bo‘ladi. Payg‘ambarlar, shariat, urf odat, ibodat va shu kabi boshqa mavzularda ham aynan shunday yo‘l tutiladi. Misol uchun, e’tiqodiy masalada Ahmad Hajoziy as-Saqoning “Alloh va sifotuhu fil yahudiyya val masihiyya val islom” (Yahudiylik, Xristianlik va Islom dinlarida Xudo tushunchasi va uning sifatlari) kitobi so‘zimizga dalil bo‘la oladi. Hajoziy, avval “Xudo” tushunchasi va uning sifatlarini yahudiylikning asl manbasi “Tavrot”ga asolanib batafsil yoritib, so‘ngra xristianlik va islom dinlarining bu boradagi qarashlarini keltirib o‘tadi. Kitob so‘ngida esa uchala dindagi o‘xhash va farqli jihatlarni o‘zaro qiyosiy tahlil qiladi. Shuningdek, shariat masalasida Hind Ma‘dlalining “Az-zivoj fi ash-sharoi’ as-samaviyya val vad‘iyya” (Ilohiy va g‘ayri ilohiy dinlarda nikoh) asarini keltirib o‘tish mumkin. Olim o‘z tadqiqotida eng avval Odam Ato va Momo Havo o‘rtasida tuzilgan nikoh, undan so‘ng hind, xitoy, yunon va shu kabi xalqlar, shuningdek yahudiylik, xristianlik, islomgacha bo‘lgan arab xalqlaridagi va islom dinida nikoh masalasini batafsil yoritgan². Shu o‘rinda, tadqiqotchilar e’tibor qaratishi lozim bo‘lgan ba’zi masalalarga urg‘u berishadi. Unga ko‘ra tadqiqot obyekti bo‘lgan masalaning boshqa dinda o‘xhashi mavjud bo‘lishi shart. Masalan, Buddaviylikda Buddha iloh to‘g‘risida so‘z yuritmagan, lekin Islomda payg‘ambar Muhammad iloh to‘g‘risida so‘z yuritgan va unga targ‘ib qilgan. Hindiston dinlarida esa “nirvana”, “tanosux” kabi boshqa dinlarda uchramaydigan hodisalar majud bo‘lib, Ibrohimiy dinlarda esa bu narsalar kuzatilmaydi. Shu sababli, tadqiqot obyekti bo‘lgan masala o‘rganilayotgan dinlarda mavjud bo‘lishi shart qilinadi³. Yuqorida ta‘kidlangan “Nirvana” hodisasi kabi faqat bitta dinga tegishli

² هند المعدلي. الزواج في الشرائع السماوية والوضعية. لبنان.

حمد شلبي. اليهودية. // مقارنة الأديان. القاهرة. "دار النهضة المصرية". 1997. ص. 37.

www.tadqiqotlar.uz

mavzu doirasidagi tadqiqotda boshqa dinlar bilan qiyoslash imkonи bo'lmaydi. Mutaxassislar fikriga ko'ra maqsad bir mavzuni turli dinlardagi talqinini olib berishga qaratilgani sababli, bu yo'nalishda olib borilayotgan izlanish har bir din haqida batafsil ma'lumot bermaydi.

2. Dinalr bo'yicha qiyosiy o'rganish. Bunda izlanish olib borilganda, avval dinlarni xar tomonlama o'rganish lozim bo'ladi. Birinchi yo'nalishda fiqh bo'yicha izlanish olib bormoqchi bo'lsak, har bir dinda shariat masalasi o'rganilib, keyin ularni bir-biri bilan qiyoslash talab qilinsa, ushbu yo'nalishda nafaqat shariatlar balki, dinning tarixi, evolyutsiyasi, payg'ambarlari, ibodati, shariat ahkomlari, oxirat haqidagi tasavvurlar va shu kabi jihatlar batafsil tadqiq qilinib, dinlar haqida mukammal ma'lumot beriladi. Misrlik dinshunos olim Ahmad Shalabiyning "Muqoranat al-adyan" (qiyosiy dinshunoslik) kitobi mazkur yo'nalishda amalga oshirilgan nodir asar hisoblanadi. "Muqoranat al-adyan" - "Yahudiylik", "Xristianlik", "Islom" va "Yirik Hindiston dinlari" kitoblaridan iborat bo'lib, olim har bir din haqida batafsil ma'lumot berib, so'ng o'xhash va farqli jihatlarini o'zaro qiyosiy tahlil qilgan. Jumladan, payg'ambarlar, ibodat, oxirat, savob-gunoh, Ibrohimiy dinlarda Xudo tushunchasi va shu kabi masalalarni keltirib o'tish mumkin. Mazkur yo'nalishda, aynan, arab-musulmon olimlari ko'proq faoliyat olib borishgan. Misol uchun, bu borada qiyosiy dinshunos Muhammad Abu Zahroning "Muhadarot fin nasroniyya" (xristianlikka oid ma'ruzalar) asarini keltirib o'tish mumkin. Olim asarda xristianlik dini, kelib chiqish tarixi, payg'ambari, muqaddas kitobi, aqidasi va shu kabi masalalarda qiyosiy-tahliliy bahs olib borgan⁴. Biror-bir din borasida izlanish olib borilayotganda o'sha dinning asl manbalariga tayanib ish olib borish lozim. Masalan, Ahmad Shalabi "Muqoranat al-adyan" asarida, dinlarni qiyosiy o'rganishda manbalarga tegishli bo'lgan asl fikrlarga suyangan, asosan bosh manbalarga tayanib, ular asosida dinlarning aqidalarini va ta'limotlarini o'rgangan va bu usuldan har bir kitobini yozishda foydalangan⁵. Bu xususda u: "Hindiston dinlari borasidagi tadqiqotimda hindlarning muqaddas kitoblari bosh manba bo'lib

⁴ محمد أبو زهرة. مخادرات في النصرانية. القاهرة. "دار الفكر العربية". 1946.

⁵ حمد شلبي. اليهودية. // مقارنة الأديان. القاهرة. "دار النهضة المصرية". 1997. ص. 39-40.

xizmat qildi. Xristianlik haqida kitob yozganimda ularning yangi ahdiga suyandim. Qur'oni karim, payg‘ambar hadislari, hamda musulmonlarning kitoblarida islom dini qanday tasvirlagan bo‘lsa shunday yoritdim. Yahudiylikni yoritishda esa eski ahd, talmud, sionist rahbarlarining protokollari eng muhim manbalar bo‘lib xizmat qildi”, deydi.

Dinlarni qiyosiy o‘rganishda yana bir muhim omillardan biri bu betaraflik, ya’ni xolislikdir. Afsuski, ko‘plab tadqiqotchilar aynan mana shu prinsipga e’tibor bermaydilar. Aksar arab-musulmon qiyosiy dinshunoslari ijodiga e’tibor bersak, ular asarlarida xolisona yondoshganlarini ta’kidlashsa-da, amalda boshqa dirlarga nisbatan o‘zlarining e’tiqodlaridan kelib chiqib fikr bildiradilar. Masalan, Ahmad Shalabiy “Yahudiylik” kitobining kirish qismida, dinlarni yoritishda xolisona yondashganini qayd etsada, mazkur kitobning 18-20 – betlarida islomdan boshqa dinlar botil ekani, aqida va ta’limotlari noto‘g‘ri ekanini ta’kidlab, dinlarni qiyosiy o‘rganish sohasining asosiy tamoyili bo‘lgan xolislikka mutlaqo zid fikrlarni bildiradi⁶.

Yuqoridagilarga qo‘srimcha ravishda tadqiqotchi o‘z izlanishida hisobga olishi kerak bo‘lgan ba’zi bir asoslar ham bor:

1. Tadqiqotchilar nazdida din a’zolardan iborat organizm deya e’tirof etiladi. Masalan, ingliz dinshunos olimi Smart (Roderick Ninian Smart 1927-2001) nuqtayi nazariga ko‘ra din mifologik, etnik, marosimlar, ijtimoiylik, ijtimoiy institusional va diniy tajriba kabi 6 a’zodan iborat organizmdir. Shunga ko‘ra dinlarni o‘rganish o‘xhash nuqtalardagina olib borilishi kerak (“Dimensionen”). Bu yo‘nalishda Y.Vax, V.Kaufmann, N.Smart va M.Payalar tadqiqot olib borishgan⁷;

2. Qiyosiy tadqiqotlarda dinlar ichidagi oqimlarning ham qarashlarini hisobga olish kerak bo‘ladi⁸. Udo Tvorushka: “tadqiqotchi ma'lumotlarni jamlaganda o’sha dindagi oqimlarning ham qarashlarini e’tiborga olishi kerak bo‘ladi. Masalan, xristianlik haqida so‘z ketganda, protestantlikni, islom haqida so‘z ketganda shialikni

⁶.41. أحمد شلبي. اليهودية. // مقارنة الأديان. القاهرة. "دار النهضة المصرية". 1997. ص.

⁷ Smart N. Comparative-historical method // Encyclopedia of religion / ed. in chief J. Lindsay. – 2nd ed. – USA: Thomson Gale, 2005.

⁸. .1997. أحمد شلبي. اليهودية. // مقارنة الأديان. القاهرة. "دار النهضة المصرية".

ham hisobga olish kerak”, deb ta'kidlaydi;

3. Tadqiqotchi dinlardagi asliyat bilan bugungi kundagi voqelik o‘rtasidagi farqni hisobga olish kerak;

4. Qiyoziylik o‘zining doirasidan tashqariga chiqmasligi lozim;

5. Tadqiqotchi dinlardagi ilohiylik bilan boshqa milliy dinlarning madaniy, diniy qarashlarni qiyoslamasligi lozim.

6. Dinlardagi saqlanib kelgan an'anaviylik bilan zamonaviy voqelik emas, balki boshqa dindagi aynan shu holat qiyoslanishi kerak⁹.

Bugungi kunda dinshunoslik sohalari rivoj topayotgan bir vaqtida, yutuqlar bilan birga ba'zi muammolar ham ko‘zga tashlanmoqda. Ulardan eng muhimi, Oliy o‘quv yurtlarida bu fanning soxa mutaxassislari tomonidan o‘qitilmayotganidir. Bu holat dinlar haqidagi bilimlarni shakllantirishda bir qator muammolarni keltirib chiqarishi mumkinligini qayd etib o‘tish lozim.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish mumkinki, olib borilayotgan tadqiqot maqsadga muvofiq va ilmiy asosga ega bo‘lishi uchun, dastlab qiyoslanayotgan mavzuning o‘xhash bo‘lishiga e’tibor qaratish, dinlarning asl manbalariga tayanish, dinlardagi mavjud oqimlarning ham fikr va qarashlarini hisobga olish hamda eng asosiysi xolisona yondashish kerak bo‘ladi.

“Dinshunoslik” fani yuzaga kelgach, dinlar tarixi va insoniyatning ilk diniy tasavvurlari haqida qator izlanishlar olib borildi. Unga ko‘ra dastlabki insonlar toshqin, chaqmoq, Quyoshning chiqishi va botishi kabi tabiat hodisalari, shuningdek, yirtqich hayvonlarni ko‘rganda, ularning oldida o‘zlarini ojiz sezib, g‘ayri tabiiy bir kuch borligiga ishonganlar. Mutaxassislar, insonlar shu tariqa Quyoshga, Oyga, hayvonlarga, ajdodlar ruhi kabi narsalarga sig‘inganlar, degan xulosaga kelishgan¹⁰.

⁹ Tworuschka U. Methodische Zugange zu den Weltreligionen. Einfurung fur Unterricht und Studium. – Frankfurt a.M/Munchen: Diesterweg/Kosel, 1982

¹⁰ Григоренко А. Религиоведение. Учебное пособие для студентов педагогических вузов. СПб, Питер,